

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT**  
**UNIVERSITETI**

**ISMAILOV JAXONGIR JALOLIDINOVICH**

**LIRIK DISKURS VA UNING SOTSIOPRAGMATIK ASPEKTI**  
**(O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI MISOLIDA)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Ismailov Jaxongir Jalolidinovich**

Lirik diskurs va uning sotsiopragmatik aspekti (o‘zbek xalq qo‘shiqlari misolida) ..... 3

**Исмаилов Жахонгир Жалолидинович**

Лирический дискурс и его социопрагматический аспект (на примере узбекских народных песен)..... 25

**Ismailov Jaxongir Jalolidinovich**

Lyrical discourse and its sociopragmatic aspect (on the example of uzbek folk songs) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 54

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI**

**ISMAILOV JAXONGIR JALOLIDINOVICH**

**LIRIK DISKURS VA UNING SOTSIOPRAGMATIK ASPEKTI  
(O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI MISOLIDA)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3270 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raupova Laylo Raximovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyeva Diloru Abdulxamidovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Keldiyarova Gulchexra Saydiyevna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsenti

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Handwritten signature]*

**A.Sh.Sobirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, f.f.d., professor

**F.F.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

**D.A.Nurmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
f.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon folklorshunosligi vakillari inson qadim zamonlardan lirik qo‘shiqlarda xalqning dunyoqarashi, milliy-madaniy turmushi ma’lum darajada aks ettirishga harakat qilib kelishlarini va bu jarayonni har bir xalq o‘zicha ifodalaganligiga alohida e’tibor qaratishadi. Xalqlarning ana shu xususiyatlari ifodasi o‘laroq, xalq og‘zaki ijodida lirik qo‘shiq maydonga kelgan deyish mumkin. Kishilik jamiyatidagi barcha hodisalar insonning hayotiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini nuqtayi nazaridan qaraladi. Ilm-fandagi bunday holat qadimgi davr falsafasidan, bugungi kundagi falsafiy fikrlardan yaqqol ko‘rinib turishi tabiiy hodisadir.

Dunyo olimlari xalq qo‘shiqlariga barcha xalqlar og‘zaki ijodiga xos qadimiy janr sifatida qarashadi. Zero, har bir xalq qo‘shiqlarida mazkur xalqning dunyoqarashi, milliy-madaniy turmushi va ijtimoiylashuv jarayonidagi xatti-harakatlari ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Bu xalq qo‘shiqlarining yana bir o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ularning turli aspektlarini o‘rganishga qiziqish davom etadi.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari lirik qo‘shiqlarning tarixiy ildizlari mifologik qarashlar, qadimgi marosimlar, urf-odatlar va arxaik rituellarga borib taqalishini ta’kidlab, ularning adabiy jihatlariga alohida e’tibor qaratishadi. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>. Zero, “bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurasha olishi mumkin”<sup>2</sup>. Ammo xalqning badiiy va musiqiy merosini saqlash, uni keyingi avlodlarga yetkazish va boyitishning asosiy vositalaridan biri hisoblanmish lirik qo‘shiqlar nutqining lingvistik va sotsiopragmatik xususiyatlarini ochib beruvchi tadqiqotlarning deyarli yo‘qligi tadqiqot ishimizning dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4947-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850 son “O‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi VMQ-304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>

<sup>2</sup> Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 11.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Folklor matnlari, jumladan, lirik qo‘shiqlar jahonda uzoq yillardan beri turli soha olimlari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Ta’kidlab o‘tish zarurki, bu kabi tadqiqotlarning asksariyat qismi rus olimlari izlanishlari bilan bog‘laniladi. Masalan, T.V.Zuyevaning “Русский фольклор<sup>3</sup>” kitobida rus xalq og‘zaki ijodiyotining tarixi, janrlari va xususiyatlari muhokama qilingan. B.N.Putilovning “Фольклор и народная культура<sup>4</sup>” tadqiqot ishida esa xalq og‘zaki ijodiyotining madaniyatdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. I.V.Tubalova va Y.A.Emerning “Ценностная картина мира традиционного и современного фольклора<sup>5</sup>” maqolasida an’anaviy va zamonaviy folklorning qiyosiy tahlili berilgan bo‘lsa, A.T.Xrolenko o‘zining “Современная отечественная лингвофольклористика: цели, проблемы и перспективы<sup>6</sup>” nomli ishida lingvofolkloristika sohasining rivoji va kelajagi muhokama qilindi.

Bundan tashqari, tadqiqotimiz obyektini hisoblangan xalq qo‘shiqlari va ularning o‘ziga xos tabiati haqida ham bir nechta izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan asosiylari sifatida M.A.Serdyuk<sup>7</sup> va R.M.Stounning<sup>8</sup> tadqiqot ishlarini ta’idlab o‘tish mumkin. Ushbu manbalardan ko‘rinib turibdiki, xalq qo‘shiqlari va xalq og‘zaki ijodiyoti haqidagi mavzu har doim ham keng qamrovli tadqiqotlar obyektini bo‘lib kelgan.

O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida ham xalq qo‘shiqlari keng ko‘lamli tadqiqot obyektini bo‘lib kelgan, deyishimiz mumkin. M.Alaviyanning “O‘zbek xalq qo‘shiqlari<sup>9</sup>” kitobi, M.Yoqubbekovanning “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari<sup>10</sup>” hamda A.Musaqulovning “O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati<sup>11</sup>” kabi doktorlik dissertatsiyalari, D.O‘rayevaning “O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarida parallelizmlarning xarakteri va badiiy-kompozitsion vazifalari<sup>12</sup>” singari nomzodlik ishi bu borada muhim ahamiyatli hisoblanadi.

<sup>3</sup> Зуева Т.В. Русский фольклор. – М., 2002. – 5 с.

<sup>4</sup> Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. – СПб., 1994. – 238 с.

<sup>5</sup> Тубалова И.В., Эмер Ю.А. Ценностная картина мира традиционного и современного фольклора // Картины русского мира: аксиология в языке и тексте / Л.П. Дронова, Л.И. Ермоленкина, Д.А. Катунин и др.; отв. ред. З.И. Резанова. – Томск: Изд-во ТГУ, 2005. – 296 с.

<sup>6</sup> Хроленко А.Т. Современная отечественная лингвофольклористика: цели, проблемы и перспективы // Русистика сегодня. Функционирование языка: лексика и грамматика. – М.: Наука, 1992. – 166 с.

<sup>7</sup> Сердюк М.А. Категория лица и ее художественные функции в русской народной лирической песне: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2002. – 201 с.

<sup>8</sup> Stone R.M. Theory of ethnomusicology. Pearson Press, New Jersey, 2008. – 53 p.

<sup>9</sup> Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1959. – 316 б.

<sup>10</sup> Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоetik хусусиятлари: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Т., 2005. – 44 б.

<sup>11</sup> Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадийати: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Т., 1995. – 41 б.

<sup>12</sup> Ўраева Д.С. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизмларнинг хarakтери ва бадий-композицион вазифалари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 1993. – 20 б.

Bundan tashqari ish doirasida D.U.Ashurova, Sh. Shaxobiddinova, L.R.Raupova<sup>13</sup>; G.K.Odilova, A.F.Ismatov, Z. Pardayev va Sh. Safarov<sup>14</sup> kabi boshqa o'zbek olim va olimalari ilgari surishgan ilmiy g'oya va xulosalari ham qimmatli bo'ldi. O'zbek xalq og'zaki ijodi, jumladan, lirik qo'shiqlar adabiyotchilar tomonidan badiiy asar sifatida chuqur tadqiq etilgan. Lekin lirik qo'shiqlarni sotsiopragmatik jihatdan chuqur o'rganish yetarlicha e'tibor qaratilmagan yo'nalishdir. Ushbu dissertatsiya o'zbek xalq qo'shiqlarining sotsiopragmatik va diskursiv tahlili orqali mavzuga yangicha ilmiy yondashuvni taklif qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq "O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi" hamda "O'zbek tili imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi va uni tahlil qilish hamda baholashning ilmiy asoslari" yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek lirik qo'shiq nutqining sotsiopragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

lirik qo'shiq diskursining umumiy nazariy asoslarini tahlil qilish hamda lirik qo'shiq nutqiga bevosita ta'sir qiluvchi elementlarni aniqlash;

o'zbek lirik qo'shiqlarining diskursiv tahlilini yoritish;

lirik qo'shiqlarda milliy-madaniy ramzlarni tahlil qilish, ularning xalq hayotidagi ahamiyatini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish;

tadqiqot obyekti sifatida tanlangan lirik qo'shiq matnlarining sotsiopragmatik xususiyatlarini tadqiq etish;

lirik qo'shiqlarda ayol va erkak lirik qahramonlarning ma'lum voqeaga bo'lgan munosabatlari hamda ularning matndagi tashqi va ichki dunyosini ta'riflovchi xarakterli xususiyatlarini o'rganish;

qo'shiqlarda ayol va erkak obrazlarini tahlil qilish orqali xalqning gender stereotiplarini aks ettirish jarayonini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida turli mavzularga ega bo'lgan o'nlab o'zbek lirik qo'shiq namunalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** o'zbek lirik qo'shiq nutqining sotsiopragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda badiiy matn tahlili, zidlash, tasniflash, kontekstual va struktural tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lirik qo'shiqlar milliy identifikatsiya, ijtimoiy norma va ma'naviy qadriyatlarini uzatish vositasi sifatida xizmat qilishi, ularda nutqning ijtimoiy xoslanishi sotsiopragmatik aspektida ramzlar orqali ham uzatilishi mumkinligi isbotlangan;

<sup>13</sup> Ашурова Д.У. Производное слово в свете коммуникативной теории языка. – Ташкент: Фан, 1991. – 100 с.; Шахобитдинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 20 б.; Раупова Л.Р. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2012. – 220 б.

<sup>14</sup> Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глюттоник дискурс мисолида). Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – 72 б.; Ismatov A.F. Ertak diskursi va uning lingvokulturologik tadqiqi (o'zbek va ingliz xalq ertaklari misolida): Diss... fil. fan. b. dok. – Andijon, 2024. – 141 b.; Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. – 104 b.; Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zME, 2008. – 247 b.

o‘zbek xalq qo‘shiqlarida bo‘ri yoki ilon kabi obrazlar xalqning totemistik qarashlariga asoslanishi, aynan sotsiopragmatik birliklar milliy mental omillarga ko‘ra madaniy stereotiplar va ijtimoiy qadriyatlarni namoyon qilishi dalillangan;

o‘zbek xalq qo‘shiqlari, asosan, xalqning kundalik hayoti, muhabbat, ijtimoiy voqealar va xalqning qahramonlari haqidagi qissalarni aks ettirishi, shu bilan bir vaqtda, sadoqat, uyat, poklik kabi tushunchalar, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni e‘zozlash ular uchun leytmotiv ekani asoslangan;

qo‘shiq matnlarida lirik qahramonlar xatti-harakatlari va ular nutqining gender, verbal hamda noverbal jihatdan farqlanishi, ramziylashtirishning yuqori darajasi amal qilishi hamda o‘ziga xos sotsial koloritga ega ekanligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xalq qo‘shiqlari xalqning lingvomadaniy boyligi sifatida ma‘lum jamiyat va millatga xos ijtimoiy va pragmatik xususiyatlarni o‘zida mujassam qilishi isbotlangan;

lirik qo‘shiqlarda keluvchi ramzlar ham ma‘lum kognitiv vosita sifatida ularda qandaydir vazifa bajarib kelishi tegishli misollar bilan ilmiy asoslab berilgan;

lirik qo‘shiqlarning diskursiv omillari ulardagi mavjud lirik qahramonlarning gender rollari orqali ham o‘rganilish mumkinligi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada o‘rganilgan materiallarning respublika hamda xorij olimlarining nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, natijalarning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda e‘lon qilib turilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shunda ko‘rinadiki, lirik janr diskursiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni yangi ma‘lumotlar bilan boyitadi hamda adabiyotshunoslik, folklorshunoslik yo‘nalishlarida bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga, xususan, folklor diskursining lisoniy-madaniy ko‘rsatkichlarini belgilashda nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan oliy o‘quv yurtlarida turli metodik tavsiyanomalar tuzish, maxsus lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari sotsiopragmatika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika kabi fanlarga oid ma‘ruzalar uchun zarur manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lirik diskurs va uning sotsiopragmatik aspekti tahlil qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

lirik qo‘shiqlar milliy identifikatsiya, ijtimoiy norma va ma‘naviy qadriyatlarni uzatish vositasi sifatida xizmat qilishi, ularda nutqning ijtimoiy xoslanishi sotsiopragmatik aspektida ramzlar orqali ham uzatilishi mumkinligi xususidagi xulosalardan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida bajarilgan “O‘zbek raqs san‘ati terminologiyasi” mavzusidagi PZ-20170930188-raqamli tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 31-oktabrdagi 01-04-08/352-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qo‘shiqlarda ayol va erkak obrazlarini tahlil qilish orqali millatimizning gender stereotiplarini aks ettirish jarayoni aniqlash yo‘lidagi tahlillar amalga oshirilgan;

o‘zbek xalq qo‘shiqlarida bo‘ri yoki ilon kabi obrazlar xalqning totemistik qarashlariga asoslanishi, aynan sotsiopragmatik birliklar milliy mental omillarga ko‘ra madaniy stereotiplar va ijtimoiy qadriyatlarni namoyon qilishi xususidagi xulosalardan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan C-202003161 raqamli “Xoreografiya san’ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan multimedia mahsulotini yaratish” nomli grant loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 31-oktabrdagi 01-04-08/350-son ma’lumotnomasi). Natijada, lirik qo‘shiqlarda ayol va erkak qahramonlarning ma’lum voqeaga bo‘lgan munosabatlari hamda ularning matndagi tashqi va ichki dunyosini ta’riflovchi xarakterli xususiyatlar tahlilida ilmiy izchillikka erishilgan;

o‘zbek xalq qo‘shiqlari, asosan, xalqning kundalik hayoti, muhabbat, ijtimoiy voqealar va xalqning qahramonlari haqidagi qissalarni aks ettirishi, shu bilan bir vaqtda, sadoqat, uyat, poklik kabi tushunchalar, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni e’zozlash ular uchun leytmotiv ekani to‘g‘risidagi xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasi, “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Hamma uchun” ko‘rsatuvchining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-44-426-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni boyitilgan, keltirilgan tahlillar teletomoshabinlarning muloqot jarayonida, diskursiv faoliyat mobaynida tilning asosiy vazifasi bo‘lgan axborotni uzatish va qabul qilish harakatlari samarasi va mazmuni to‘g‘risidagi bilimni va ularning nutq zohirlanishiga qiziqishini oshirishga imkon yaratgan;

qo‘shiq matnlarida lirik qahramonlar xatti-harakatlari va ular nutqining gender, verbal hamda noverbal jihatdan farqlanishi, ramziylashtirishning yuqori darajasi amal qilishi hamda o‘ziga xos sotsial koloritga ega ekanligi xususidagi xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” teleradiokanalining bir qator ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-ommabop yo‘nalishlardagi ko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (“Yoshlar” teleradiokanalining 2024-yil 13-noyabrdagi 14-02-199-son ma’lumotnomasi). Natijada teleko‘rsatuvlar ssenariysi mazmunan boyitilib, teletomoshabinlarning notiqlik va so‘zlashuv madaniyatiga rioya etish, o‘zaro muloqotda so‘zlashuv odobiga rioya etish kabi fazilatlarining kuchayishiga hissa qo‘shgan;

xalq qo‘shiqlari xalqning lingvomadaniy boyligi sifatida ma’lum jamiyat va millatga xos ijtimoiy va pragmatik xususiyatlarni o‘zida mujassam qilishi xususidagi xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 11-noyabrdagi 01-03/911-son ma’lumotnomasi). Natijada lirik qo‘shiq namunalarida xalqimizning milliy qadryatlari, lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, jamoada o‘zini idora etish, so‘zlashuv odobiga rioya etish kabi fazilatlarini shakillantirish va yoshlar ma’naviyatiga singdirishda alohida ahamiyat kasb etgan va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda imkon yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo’yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 123 sahifani tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Diskurs va matn munosabati hamda folklor diskursining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlanib, unda tilshunoslik va folklorshunoslikda diskurs atamasi va folklor matnlarning diskursiv tahlili yuzasidan jahon tilshunoslarining ishlari muhokama qilingan. Bobning birinchi fasli **“Antropotsentrik tilshunoslikda diskurs va matn muammosi tahlili”** deb nomlanib, unda ushbu atamaning noaniqligi va uning bilimlarning turli sohalarida qo‘llanilishi ushbu tushunchani talqin qilishda turlicha yondashuvlarni shakllantirganligi eslatib o‘tildi.

Gollandiyalik olim Van Deyk tomonidan shakllantirilgan diskurs ta’rifi zamonaviy tilshunoslikda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, unga ko‘ra, diskurs til shaklining murakkab birligi sifatida matndan tashqari ekstralingvistik omillardan (dunyoni bilish, g‘oyalar, tushunchalar, adresat maqsadi) tashkil topgan murakkab kommunikativ tuzilmadir<sup>15</sup>. Shuni ta’kidlash kerakki, diskursning ushbu ta’rifi ko‘plab lingvistik tadqiqotlar uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qilgan.

T.M. Nikolaeva diskursning turli ta’riflarini hisobga olib, eng muhimlari sifatida quyidagilarni ta’kidlaydi<sup>16</sup>:



<sup>15</sup> Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – 310 с.

<sup>16</sup> Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы. – М.: Прогресс, 1978. – 39 с.

“Diskurs” tushunchasiga yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirgan holda, bu atama “matn” tushunchasiga yaqin ekanligi ayon bo’ladi, lekin undan farqli o’laroq, diskurs vaqt o’tishi bilan yuzaga keladigan lingvistik aloqa sifatida tavsiflanadi, matn esa turg’un obyekt va lingvistik faoliyat natijasidir.

Matn borasidagi keltirilgan ta’riflar ichida, bizningcha, eng to’liq va eng to’g’risi I.R. Galperinning quyidagi ta’rifi hisoblanadi: “Matn nomlar va maxsus birliklar (murakkab sintaktik birlik) dan iborat bo’lgan batafsil, o’ziga xos birlik. Shuningdek, u leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy bog’lanishlar, ma’lum bir maqsad uchun yo’naltirilgan va pragmatik ta’sirga yo’naltirilgan, yozma hujjat shaklida rasmiylashtirilgan nutq jarayoni mahsulidir<sup>17</sup>”

Tadqiqotchi A.I.Novikov matnga nisbatan to’liqlik, izchillik, bog’lanish, puxtalik kabi kategoriyalarni qayd etadi<sup>18</sup>. Yana bir rus olimi A.A.Leontiev esa bu borada matnning yaxlitlik masalasiga alohida e’tibor qaratadi<sup>19</sup>. R.Galperin fikriga ko’ra, matnga xos bo’lgan kategoriyalarga quyidagilar kiradi:



Tadqiqotning keyingi fasli dastlabki qismi “**Badiiy matn va unga aloqador birliklarning diskursiv xususiyatlari**” deb nomlanadi. Badiiy matn badiiy adabiyot kanali orqali matnning g’oyaviy-badiiy mazmunidagi murakkab bir yaxlitlikka birlashgan moddiy-mantiqiy, estetik, hissiy va baho ma’lumotlarini yetkazishga xizmat qiluvchi og’zaki xabardir.

Badiiy matn shunchaki axborot, kommunikativ, estetik, jamlovchi tuzilma emas. U o’z xususiyatlariga ko’ra yangi ma’no yaratish, jonlantirish, madaniy jihatdan to’plangan bilimlarni hosil qilish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham matn, jumladan, badiiy matn ham fanning turli sohalarida turli tomonlardan ko’rib chiqilishi tabiiy.

<sup>17</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 18 с.

<sup>18</sup> Новиков А.И. Художественный текст и его анализ. – Москва: Наука, 1988. – 304 с.

<sup>19</sup> Леонтьев А.А. Понятие текста в современной лингвистике и психолингвистике // Психолингвистическая и лингвистическая природа текста и особенности его восприятия. – Киев, 1979. – 120 с.

Tilning estetik va pragmatik funksiyalariga asoslanib, badiiy matn quyidagi kichik funksiyalarni belgilaydi:

- 1) ma'lumotlarni yetkazib berish;
- 2) yangi ma'lumotlarni ishlab chiqarish;
- 3) axborotni saqlash.

O'quvchi badiiy matnni tushunsagina yuqoridagi uchta vazifa to'liq amalga oshadi.

Badiiy matn alohida muallifning badiiy so'z bilan yozilgan asaridir. Badiiy matnda axborot saqlanadi, uzatiladi va yangi axborot olinadi. Badiiy matn bilan tanishish jarayonida o'quvchi axborot bazasining maqsadi va mazmunini anglash uchun muallif bilan ijodiy munosabatda bo'ladi.

Badiiy matn boshqa matn turlaridan ekspressiv-emotsional til birliklarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Shu munosabat bilan badiiy matnlarda fikrni ifodalash shakli ko'pincha emotsional va ritorikdir. Badiiy matn o'zining majoziy va obrazli lingvistik xususiyatlari bilan o'quvchi va muallif (adresat va adresant) o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Badiiy matnning boshqa matnlardan yana bir farqi shundaki, u o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etib, estetik kuchi, hissiy bo'yloqlari orqali fikr jarayonlariga erkinlik beradi.

Badiiy matndagi tilning funksional pragmatik tomonlarini quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlash mumkin:

- muallif niyati (manipulyatsiya, asardagi vaziyat sharoitida funksional uslublarni ifodalash, muallif niyati, istagi, obrazlarning instinktiv harakatlarining tilda ifodalanishi);

- matnning pragmatik salohiyati (matn mazmuni, yozuvchi yoki muallif fikrini yetkazishda til operatsiyalarining semantik aloqasi);

- yozuvchi yoki hikoyachi tomonidan badiiy usullardan foydalanish;


- matndagi antropotsentrizm, ya'ni muallif obrazi;

- o'quvchi yoki tinglovchining asl bilimi (asar yoki matndagi tarixiy-madaniy ijtimoiy vaziyat va hodisalarni tushunishda uning bilimi, yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy mavqei xususiyatlari orqali ochiladi) va hokazo.

Badiiy matn juda murakkab semantik-tarkibiy tizim sifatida o'ziga xos xususiyatlar va umumiy qonuniyatlarga ega. Badiiy matn o'zining semantik ko'p qatlamliligi, emotsional-ekspressivligi, konnotativligi va subyektivligi tufayli o'quvchidan katta bilimni talab qiladi. Shunday ekan, badiiy matnga nafaqat muallifning lingvistik qobiliyati, dunyoni lingvistik tasvirlash, niyat va imkoniyatlar nuqtayi nazaridan, balki o'quvchi idroki nuqtayi nazaridan ham qarash kerak.

Faslning navbatdagi qismi **“Folklor diskursi va ularning xarakter xususiyatlari”** deb ataladi. Folklori o'rganish ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan qadriyatlar va dunyoqarashlar tizimini qisman qayta qurish imkonini beradi. Folklor ko'pincha tilning etnik guruh yoki umuman jamiyat bilan aloqasini ko'rsatadigan lingvistik vaziyatlarning turlariga bog'liq. Bundan tashqari, bu adabiy shaklning rivojlanishiga turtki bo'lgan tilning mavjudlik shakllaridan biridir. Ammo bu adabiy shakl butun etnik guruhni qamrab oladi, degani emas. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi tilini adabiy tilning bir qismi deb hisoblash kerak.

Xalq og'zaki ijodining san'at sifatidagi asosiy belgilari quyidagilardan iborat:



Folklor nutqi institutsional diskurs turlaridan biri hisoblanadi. Institutsional nutqni o'rganishning asosiy yo'nalishlari nutqning madaniy-situatsion mohiyati sifatida tegishli xususiyatlarini aniqlash, uning tuzilishini modellashtirish, tillararo taqqoslashda nutqning lingvistik va madaniy xususiyatlarini yoritish, uning turlari va janrlarini belgilash bilan cheklanadi.

Folklor nutqi o'ziga xos shakllanish bo'lib, u inson faoliyatining turli sohalariga xizmat qiluvchi bir qator barqaror kommunikativ vaziyatlarda amalga oshiriladi. Umumiy bilimlarni uzatish orqali u jamiyat hayotini barqarorlashtiradi hamda stereotipik vaziyatlarda xatti-harakatlarning individual variantlarini taklif qiladi. Folklor nutqida kommunikatorlar bitta ijtimoiy hamjamiyatning vakillari sifatida harakat qilishadi.

Folklor nutqini tavsiflash uchun uning mavjud bo'lish shartlari katta ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyat a'zolari ongli ravishda folklorga milliy g'oyalar manbai sifatida murojaat qilib, uni madaniy merosning tarkibiy qismi sifatida saqlash va targ'ib qilish muhimligini ta'kidlashadi.

Folklor diskursida muloqot joyi ham muhimdir. Ba'zi folklor janrlari ijro joyiga qattiq bog'lanmagan (qoida tariqasida, bu an'anaviy bo'lmagan folklor deb ataladi), boshqalari esa, aksincha, faqat ma'lum bir joyda va ma'lum bir vaqtda ijro etilishini talab qiladi (an'anaviy folklor).

Folklor nutqi jamoaviy ong, jamiyatning qadriyat yo'nalishlarini aks ettiradi. Uning maqsadi jamiyatning madaniy va ijtimoiy o'zini o'zi anglashini ifodalovchi, uning ehtiyojlarini aks ettiruvchi, jamiyat hayotini barqarorlashtiruvchi jamoaviy bilimlarni yetkazishdir. Folklor nutqining qadriyatlariga bilimning an'anaviy tabiati, shaxsni jamiyatdan ajratmaslik, dunyo modelining idealligi, me'yoriy kontekst, estetik va axloqiy belgilar kiradi. Folklor nutqida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan bu qadriyat yo'nalishlari matnlar tuzilishi hamda tildan foydalanish xususiyatlarini belgilaydi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Lirik qo'shiqlar tilining diskursiv birliklari tahlili”** deb nomlanadi. Mazkur bobning **“Xalq qo'shiqlari va ularning til xususiyatlari”** nomli birinchi faslning dastlabki qismida biz xalq qo'shiqlarining diskursiv xarakterli xususiyatlarini o'rganishga harakat qildik.

Lirik qo‘shiq - bu adabiyotning eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lib, dunyoning o‘ziga xos tasvirini aks ettiradi. U xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Xalq donoligi va atrofdagi dunyo haqidagi bilimlar mahsuli sifatida lirik qo‘shiq madaniyat uchun muhim bo‘lgan axloqiy va estetik qoidalar to‘plamini o‘zida mujassamlashtiradi.

Lirik qo‘shiq nutqi - bu adabiy nutqning bir qismi bo‘lib, uning kommunikativ vazifasini aks ettiradi. U xalqning madaniy va ijtimoiy tajribasi, xalq qarashlari va dunyo haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u o‘ziga xos axloqiy va estetik kodni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Murakkab lingvistik va madaniy tuzilma sifatida lirik qo‘shiq nutqi zamonaviy muloqotning turli vaziyatlarida tirik ijrochi yoki jonsiz texnik tashuvchi va tinglovchi ishtirokida, muayyan mavzular, janrlar va ijro usullari bilan amalga oshiriladi. U estetik, didaktik va satirik effektga erishish uchun maxsus pragmatik yo‘nalishga ega bo‘lib, bu lirik qo‘shiq rangi va tilining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Lirik qo‘shiq nutqi bilan badiiy nutq o‘rtasidagi bog‘liqlikning qadimiy tarixi mavjud. Badiiy adabiyotning bir qismi sifatida boshqa san‘at turlaridan biri - lirik qo‘shiq nutqi xalq amaliy san‘ati hisoblanadi. Badiiy muloqotning birlamchi shakli sifatida lirik qo‘shiq nutqining og‘zaki shakli boshqa san‘at turlari bilan irsiy aloqadorligi va mohir ijrochilar ijodi tufayli ajralmasdir.

Lirik qo‘shiq matnlari tili umumiy til xususiyatlarining, ya‘ni ma‘lum bir jamiyatda, ma‘lum bir zamon va makonda qo‘llaniladigan real hayot belgilarining ma‘lum bir sinfi xossalarining ko‘p sonli realizatsiyalaridan biridir. Lirik qo‘shiq matnining tuzilishi asosan yuqori darajadagi izchillik bilan ajralib turadi, bu lirik qo‘shiqning ritmik tashkil etilishining asosini tashkil etuvchi turli xil fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va boshqa turdagi birliklar bilan izohlanadi. Takrorlash lirik qo‘shiq nutqining dastlabki og‘zaki uslubining matn bazasini va shunga mos ravishda rivojlanayotgan kommunikativni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tilshunoslikda tilning diskursiv jihatlarini o‘rganishga qiziqish ortib borishi lirik qo‘shiq obrazlarini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularning inson xatti-harakatlariga og‘zaki ta‘sirini aniqlash zarurligini ta‘kidlaydi. Chunki til hodisalarini ularning diskursiv jihatlarini hisobga olmagan holda adekvat tushunish va tasvirlab bo‘lmaydi. Lirik qo‘shiq nutqi murakkab lingvokulturologik shakllanish bo‘lib, zamonaviy muloqotning turli vaziyatlari va sharoitlarida jonli ijrochi yoki uning o‘rnini bosuvchi texnik tashuvchi va tinglovchi ishtirokida amalga oshiriladi. Lirik qo‘shiq nutqi biz uchun lirik qo‘shiq kontekstida yozilgan kognitiv va lingvistik faoliyatning dinamik jarayoni va uning natijasi, ya‘ni maxsus berilgan ijtimoiy matn sifatida tushuniladi.

Bobning mazkur fasli ikkinchi qismi **“O‘zbek xalq qo‘shiqlari tasnifi va ularning diskursiv aspektlari”** deb nomlanib, unda lirik qo‘shiqlarning ayrim ahamiyatga molik turlari (lapar va o‘lanlar) va diskursiv xususiyatlari haqida atroflicha fikr yuritiladi. O‘zbek xalq lirikasida xalq qo‘shiqlarining yirik turlaridan biri bo‘lmish o‘lan va laparlar o‘ziga xos va muhim o‘rin tutadi. Ular xalqning histuyg‘ularini, sevgi va dardini ifodalovchi noyob asarlardir. **O‘lan** - bu o‘zbek xalqining lirik janriga kiruvchi, odatda qisqa va ko‘pincha bir nechta qatordan iborat

bo‘lgan she’riy asar bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajaratib ko‘rsatish mumkin:

*Qisqalik va lo‘ndalik:* o‘lanlar ko‘pincha bir nechta misralardan iborat bo‘lib, ma’lum ifodali fikrlarni o‘z ichiga oladi.

*Emotsionallik:* ular sevgi, xafalik, orzu va umid kabi his-tuyg‘ularni ifodalaydi.

*An’anaviy mavzular mavjudligi:* odatda, o‘lanlar turmush, tabiat, insoniy his-tuyg‘ular va xalq an’analari asosiga qurilgan bo‘ladi.

Laparlar esa, asosan, raqs va marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar bo‘lib, ko‘pincha xalqning turmush tarzini aks ettiradi.

Laparlarning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

*Raqsga moslik:* laparlar ko‘pincha raqs qilish jarayonida ijro etiladi, shuning uchun ularning musiqasi ritmik va jozibali bo‘ladi.

*Mahalliy rang-baranglik:* laparlar turli mintaqalarda o‘ziga xos uslub va melodiyalarda ijro etiladi.

*Marosimlar bilan bog‘liqlik:* ular odatda to‘y, bayram va boshqa shu kabi tadbirlarda kuylanadi.

Ma’lumki, xalq qo‘shiqlarida har qanday ijrochi ma’lum bir obyektiv voqelikni tasvirlashda ma’lum bir usul va janrdan foydalanadi; umumiy tildan so‘zlarni o‘z fikriga ko‘ra tanlab, saralab, mos va ta’sirchan sintaktik tuzilmada joylashtiradi. Binobarin, ijodkor o‘z fikrini, dunyoqarashini, tushunchasini to‘g‘ri, konkret, ta’sirchan va obrazli ifodalashga harakat qiladi. Qo‘shiq nutqini o‘ziga xos qilib keluvchi ana shunday maxsus vositalardan biri takrorlardir.

*Takrorlar.* Ashuladagi fonetik hodisalar haqida birinchi navbatda tovushli takrorlar aytiladi. Qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan bu usul qo‘shiq matnida uslubiy vazifa bajaradi.

Ovozni takrorlash hozirda funksional uslublarning ijodiy turlarida, xususan xalq qo‘shiqlari matnlarida faol qo‘llaniladi. Fikrimizning isboti sifatida hatto qo‘shiq matni sarlavhalarining o‘zidayoq ko‘pincha tovush replikatsiyasi asosiga qurilgan o‘rinlar mavjudligini ta’kidlash o‘rinli:

## 1-jadval

### “Ha ... a ... a” qo‘shig‘i

*Dadajon, qarang, qarang shu qizgina bamo ekan,*

*Qomati qamish ekan, ko‘zginasi shahlo ekan,*

*Sovchi bo‘lay, asta so‘ray, rozi bo‘lsa olib beray.*

*Singiljon, qarang, qarang dadam hali qari emas,*

*Azroilni hurkitar, berisi ko‘p, nari emas,*

*O‘ylab ko‘ring, sinab ko‘ring, yoqsa agar rozi bo‘ling.*

Lirik qo‘shiqlar sarlavhalarida leksik takrorlar ham mavjud bo‘lib, ular qo‘shiq matni uchun alohida hamaiyatga ega hodisa hisoblanadi. Sarlavha va uning ichidagi takrorlarni ko‘rsatadigan bir misol sifatida “**Yor-yor**” qo‘shig‘ini keltirish mumkin. Ushbu qo‘shiqda “yor” so‘zi ikki marotaba ishlatilgan bo‘lib, undagi “yor” so‘zining takrorlanishi nafaqat ma’noni, balki ritmni ham kuchaytiradi:

| “Yor-yor” lapari   | “Navro‘z yor-yori”  |
|--|---|
| <i>Qoshingni qora deydilar,<br/>Qoraqosh ukam, yor-yor.<br/>Ko‘rsat qoshingni men bir ko‘ray,<br/>Jonim ukam, yor-yor.</i> | <i>Gul navro‘z chechagida,<br/>Belanchak bor, yor-yor.<br/>Belanchakning boshida,<br/>Kelinchak bor, yor-yor.</i> |

Ko‘rinib turganidek, “yor-yor” iborasi ikkala ashula musiqiy oqimida aniq ifoda etilgan. Shuningdek, bu kabi takrorlar qo‘shiqlarning hissiy va ritmik jihatlarini boyitgan. Bu esa, o‘z navbatida, tinglovchida kuchli ta‘sir qoldirmasdan qolmaydi.

*Okkasionalizmlar.* Qo‘shiq matnlarida uchraydigan individual-muallif neologizmlari (okkasionalizmlar) muallifning o‘z imzosi hisoblanadi. Ta‘sirchanlik, ifodalilik yaratish maqsadida yaratilgan bunday qo‘llanishlarni yozuvchiga xos bo‘lgan mualliflik neologizmlari, ya‘ni ularning paydo bo‘lishining turli sabablari sifatida nomlash mumkin.

- a) fikrni to‘g‘ri va ixcham yetkazish maqsadi;
- b) yozuvchi ongida paydo bo‘lgan murakkab obrazni to‘plash va sintez qilishga intilib, bir nechta fikr tizimlarini birlashtirishi;
- d) tilimizda mavjud bo‘lgan tushunchalarga yanada muvaffaqiyatli nom berishi;
- e) hodisani obrazli tasvirlash zarurligini his qilishi;
- f) poetik texnikaning turli vazifalarini bajarishi (uyg‘unlikni saqlashi, ritmik ohangni buzmasligi);
- g) so‘zlarni qo‘llashda tavnologiyadan qochishi;
- h) so‘zlarning o‘ziga xosligi va o‘ziga xosligiga intilishi, “eski” so‘zlarni takrorlamaslikka harakat qilishi bilan belgilanadi<sup>20</sup>.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi so‘nggi fasli **“O‘zbek xalq qo‘shiqlari matnlarida kognitiv xususiyatlarning tildagi voqelanishi”** deb nomlandi. Lirik qo‘shiq nutqi - bu ma‘lum bir etnik guruhning ijtimoiy-madaniy dunyosi qiyofasini to‘liq aks ettiruvchi, muloqotchilar o‘rtasidagi suhbatning o‘ziga xos modelidir. U ijtimoiy-tarixiy, madaniy, etnik, lisoniy omillar bilan belgilanadi va shaxsning, butun xalqning ongining o‘ziga xos xususiyatlarini, zamon tomonidan tasdiqlangan ilg‘or an‘analarni aks ettiradi. Lirik qo‘shiq nutqi — bu noyob ijtimoiy tushunchalar va ularning turli xil variantlari to‘plamidir.

Lirik qo‘shiq - o‘zini va dunyoni bilish, etnik guruhning milliy ongini, tafakkurini, til va madaniy qadriyatlarini anglash yo‘lidagi muhim pog‘onadir. Madaniyat tilda so‘zlashuvchilarning tafakkurini, lingvistik kategoriyalar va tushunchalarni shakllantiradi va tartibga soladi.

Ashulalar hajmining kichikligi har bir so‘zga nisbatan boshqa janrlarga qaraganda ko‘proq badiiy “yuk” yuklaydi. Bu, o‘z navbatida, matndagi har bir elementning chuqur va ko‘p qirrali mazmun ifodalay olishiga imkon beradi. Poetik san’atlar orasida ramzning ifoda kuchi muhim o‘rin tutadi. U bitta so‘z orqali keng va chuqur mazmuni yetkazishga qodir. Ramzlar badiiy ifodaning asosiy

<sup>20</sup> Муратова Г.Ә. Кәркем әдебиеттегі қажеттілік пен кездейсоқтық. – Алматы, 2002. – Б. 45-46.

vositalaridan biri sifatida, ifodalangan his-tuyg‘u va g‘oyalarni yanada chuqurlashtiradi.

Shu bilan birga, ashulalarda ramzning boshqa poetik janrlarga nisbatan keng qo‘llanilishi ularning badiiy va ma‘naviy imkoniyatlarini yanada boyitadi hamda tinglovchilar uchun chuqur hissiy tajribalarni taqdim etadi. Bu jihatlar, ashulalarning estetik va g‘oyaviy jihatdan boyligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, u qo‘shiqning ohangdorligini ta‘minlab, uning badiiy qimmatini oshiradi. Ular qo‘shiqning chuqur ma‘nosini ochib beradi va bir qarashda oddiy bo‘lib tuyulgan so‘zlarning orqasida yashiringan chuqur ma‘nolarni ko‘rsatadi. Quyida “Yor-yor” qo‘shig‘idagi ba‘zi ramziy leksik iboralarning simvolik xususiyatlarini izohlashga harakat qilamiz. Avvalo, qo‘shiqning biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan ramziy elementlarga boy qismiga e‘tiborimizni qarataylik:

*“Ro‘molini yuvdirdim, omon yor,  
Qora tolga ildirdim, omon yor.  
Qora toli qurisin, omon yor,  
Qaroqchiga oldirdim, omon yor”.*

### 3-jadval

|                               |   |
|-------------------------------|---|
| <b>“Ro‘mol”:</b>              | Bu yerda ro‘mol faqatgina kiyim sifatida buyumni emas, balki qizning pokligi, iffati va sadoqatining ramzi.   |
| <b>“Yuvdirdim”:</b>           | Bu so‘z esa qizning o‘z pokligi va sadoqatiga bo‘lgan ishonchini ifoda etadi. U ro‘molni yuvdirish orqali o‘zining tozaligini va pokligini ta‘kidlamog‘da.  |
| <b>“Qora tol”:</b>            | Bu yerda qora tol qizning qayg‘usi, g‘ami va azobini ifodalaydi. Darhaqiqat, qora rang, xususan qora tol — qayg‘u va g‘amning ramzidir.   |
| <b>“Ildirdim”:</b>            | Bu so‘z qizning o‘z qayg‘usini qora tolga bog‘lab, uni unutishga harakat qilishini bildiradi. Zero, lirik qahramon o‘zining qayg‘usini qora tolga ildirish orqali uni unutishga umid qilmoqda.                    |
| <b>“Qora toli qurisin”:</b>   | Bu so‘z qiz qayg‘usining vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib ketish istagini ifodalaydi. Parchada aytilganidek, qiz qora tolning qurib qolishini xohlamoqda, chunki bu qayg‘u yo‘qolishini anglatadi.                     |
| <b>“Qaroqchiga oldirdim”:</b> | Bu so‘z esa, qizning o‘z qayg‘usini qaroqchiga berib, uni o‘zidan uzoqlashtirishga harakat qilishiga ishora qiladi. Ta‘kidlanishicha, qiz qaroqchiga oldirish orqali qayg‘u va azobdan xalos bo‘lishni istamoqda. |

Xalq lirikasida qushlarni xabarchi sifatida tanlashda ma‘lum xalqning ba‘zi qushlar haqidagi kuzatuvlari va e‘tiqodlari muhim rol o‘ynaydi. Ana shunday qush turlaridan biri qarg‘adir.

*Qarg‘a obrazi.* U faqatgina yaxshilik va yomonlikdan ogohlantiribgina qolmay, balki odamlarning so‘zlarini va harakatlarini g‘ayib olamiga yetkazib turuvchi vositachi sifatida ham qaraladi.

Xalq qo‘shiqlarida qarg‘a lirik qahramonning sevgisini, dardini, umidsizligini, xursandchiligini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, sevgi qo‘shiqlarida qarg‘a sevgilining xabarini olib keluvchi sifatida tasvirlanadi. U sevgilining so‘zlarini, hissiyotlarini lirik qahramonning qalbiga yetkazadi. Dardli qo‘shiqlarda esa, qarg‘a lirik qahramonning dardini, og‘ir ahvolini ifodalaydi. Buning isboti quyidagi misolda yaqqol ko‘rinadi:

*“Qarg‘alar uchsa qaraylik,  
Marg‘ilonning yo‘liga.  
Hidi kelsa mast bo‘laylik  
Handalakning bo‘yiga.  
Handalak bo‘ylikkinam,  
Siz unda zor, biz bunda zor.*

*Ikkalamiz to‘tiqushning,*

*Bolasiday intizor”*. - **“Qarg‘alar uchsa qaraylik” qo‘shig‘i**

Lirik qahramonning “uchayotgan qarg‘alarga ko‘z tutishi” ni o‘z ma‘nosida tushunish xato. Vaziyatni yaxshiroq tushunish uchun qo‘shiqning tarixiy ildizlariga e‘tibor qartgan holda mulohaza yuritish maqsadga muvofiq. Qo‘shiq o‘sha dahshatli 1875-yil, Marg‘ilon xalqining rus askarlariga qarshi qahramonona qarshiligi, ammo mag‘lubiyatga uchrashi natijasida erk yo‘lida qirg‘inbarot qilingan o‘zbek er yigitlarining tanalari vahshiylarcha qushlarga, xususan qarg‘alarga yem qilinganligi haqidagi xalqning og‘ir azoblarini o‘zida mujassam etgan. O‘lganlarning jasadi tahqirlanib, qarg‘alarga oziq bo‘lgan bo‘lsa ham keyin Marg‘ilon xalqi o‘z azoblarini yashirishga harakat qilishgan. Zero, shunday yo‘l tutilmasa, bu yana-da og‘ir oqibatlariga olib kelishini tushunishgan. Vaqt o‘tishi bilan jasadlar o‘zidan yoqimsiz hid taratishni boshlaganki, natijada yo‘ldan o‘tish tugul, hatto yaqinlashish ham iloji bo‘lmay qolgan. Bu hid butun shahar va atrof qishloqlariga tarqalgan. Qo‘shiqda esa, o‘zbek xalqi yaqinlarning yorqin xotirasini hurmat qilish uchun, o‘sha dahshatli hidni ham yoqimli iforga tenglashtirishgan. Shuning uchun ham *“Handalak bo‘ylik”* iborasi o‘sha vaqtning og‘ir ruhiy holatini, xalqning o‘z azoblarini yashirishga bo‘lgan intilishini aks ettiradi, deyish mumkin.

Mazkur qo‘shiqda qarg‘a — bu faqat qush emas, balki zulm va o‘limning ramzi hisoblanadi. *“Qarg‘alar uchsa qaraylik, Marg‘ilonning yo‘liga”* misralari xalqning o‘z farzandlarini yo‘qotish azobini, ularning qabrlarini ziyorat qilishga bo‘lgan intilishini ifodalasa, *“Hidi kelsa mast bo‘laylik, Handalakning bo‘yiga”* misralari esa, o‘lganlarning tanasidan chiqqan badbo‘y hidni, o‘limning qayg‘uli hidi bilan bog‘liq bo‘lgan og‘ir xotiralarni ifodalaydi.

Qo‘shiqdagi keyingi to‘rtlikni boshlab beruvchi *“Handalak bo‘ylikkinam, Siz unda zor, biz bunda zor”* misralari o‘lganlarni sog‘inish, ular bilan birga bo‘lishga bo‘lgan istakni, ularning yo‘qligidan kelib chiqqan dardni ifodalab kelgan bo‘lsa, *“Ikkalamiz to‘tiqushning, Bolasiday intizor”* o‘rni o‘lganlarning qayta tirilishiga bo‘lgan umidsizlikni, ular bilan yana uchrashishga bo‘lgan istakni ifodalab kelgan.

Tadqiqotning 3-bobi birinchi fasli **“O‘zbek lirik qo‘shiqlar matnlarida sotsiopragsmatik va gender xususiyatlarning lisoniy xoslanishi”** deya nomlangan. Uning dastlabki fasli ham mos ravishda ikki qismdan iborat. Birinchi qism quyidagicha nomlanadi: **“Lirik qo‘shiqlarda sotsiopragsmatik xususiyatlarning**

**ifodalanishi**”. Sotsiopragmatika tilning kommunikativ foydalanishining umumiy qoidalarini o‘rganadi. Ya’ni, u tilni qanday ishlatish kerakligi, qanday ma’nolarni yetkazish mumkinligi haqidagi umumiy prinsiplarni o‘rganadi. Bu soha tilning barcha turlari uchun umumiy bo‘lgan qoidalarni o‘z ichiga oladi”.

Xalqning lirik qo‘shiqlariga xos xususiyati shuki, ularda mexnatkash xalqqa xos kamtarinlik, poklik, ko‘ngillarning beg‘uborligi hamda samimiylik ravshan aks etadi. Ularda sevimli, andishali, hayoli, oqila yor obrazi o‘zining bir olam sevinchlari, noz karashmalari bilan gavdalanadi.

